ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2025/ № 2.1-2

Termiz – 2025

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro‘yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko‘chirma va ma’lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko‘chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.05.2025
Qog‘oz bichimi: 70x85
Bosma tabog‘i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog‘ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko‘chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko‘chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
www.philologicalresearch.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisod fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY’ATI:
Bekpo‘lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o‘rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas’ul muharrir)
O‘ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Normat Yo‘ldoshev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Asqar Eshmo‘minov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.f.d., dotsent, (PhD) (O‘zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Zaynura Qodirova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Dilrabo Ergasheva, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To‘raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 28.05.2025
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
www.philologicalresearch.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ, доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Зайнура Кадирова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Дильрабо Эргашева, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 28.05.2025
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
www.philologicalresearch.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV, doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, PhD (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, PhD (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, PhD (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, PhD (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, PhD (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, PhD (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, PhD (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, PhD (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, PhD (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, PhD (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, PhD (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, PhD (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, PhD (Uzbekistan)
Zaynura Kadirova, PhD (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, PhD (Uzbekistan)
Dilrabo Ergashova, PhD (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

KURBANOVA MUHABBAT MATYAKUBOVNA,
SARBAROVA DILNOZA NOSIRJON QIZI
Deyksis va anafora tushunchalari: o‘xshash va farqliliklar 7

JUMANYAZOVA MUHABBAT XUSINOVNA
Xorazm vohasi folklori tilidagi muarrablar 10

KURBANAZAROVA NARGIS SHODIYEVNA
Qo‘ng‘irot etnonimining fonetik-fonologik
variantlarida semantik tafovut 13

BABAXANOVA DILAROM AXMATXANOVNA
O‘zbek adabiy tilida paremiyalarga xos xususiyatlar 18

O‘RAZOVA IQBOL ABDIKARIMOVNA
«Ko‘ngil» leksemasi va uning «tafakkur»
sememasidan shakllangan frazemalar tahlili 22

XOLOVA MUYASSAR ABDULHAKIMOVNA,
BOZOROVA ELINOR,
XOLIQULOVA ZARNIGOR
Alisher Navoiy korpusi tadqiqiga doir ayrim qaydlar 26

SAATOVA SURAYYO ISMAILOVNA
Individuallik – yozuvchi lisoniy shaxsini belgilashda muhim ko‘rsatkich
(J.Jovliyev asarlari misolida) 29

MUKUMOV MAKHMUD KHUDAYBERDIEVICH
Discourse and the formation of scientific meaning 32

IBODULLAYEVA KUNDUZ RUSTAM QIZI
Ilmiy diskursda janrlar masalasi va uning xususiyatlari 36

YADIGAROVA SITORA BAXRAMOVNA
Ingliz va o‘zbek tillaridagi kiyim va mato komponentli frazeologik
billiklarning konnotativ va denotativ ma’nolari 41

МИРЗАЕВА ШАХЛО РИЗАЕВНА,
РУЗИЕВА МУШТАРИ ХУСНИДДИН КИЗИ
Отличие синонимов от многозначных
слов в русском и узбкском языках 43

ХАЙДАРОВА ГУЛБАХОР ЮЛДАШЕВНА
Трансформация глагольной основы в прилагательное
с помощью суффиксов 47

ВАПАЕВА АНАХОН НАСУРИЛЛАЕВНА
Компонентный анализ активно употребляемых
единиц современной русской и узбекской лексики 51

ЙУЛДОШЕВА САОДАТЖОН ШУХРАТ КИЗИ
Формы обращения и речевого этикета в русскоязычных
и узбекоязычных онлайн-коммуникациях 55

МУНДАРИЖА

SOBIROVA GULSHANA FAXRIDDINOVNA
O‘zbek tili haqoratli so‘zlar izohli lug‘atini tuzish tamoyillari 61

YULBARSOV OCHILBEK OBIDJON O‘G‘LI
Neologizmlarning korpus tahlili yordamida tadqiq etilishi va
ularning konkordanslari asosida ma’lumotlar
bazasini shakllantirish tamoyillari 66

OQILA ABDULLAYEVA XOLMO‘MINOVNA
Turkiy tilshunoslikda dependency parsingga oid tadqiqotlar 72

HILOLAXON SHUHRATXON QIZI PO‘LATXONOVA
Neurolinguistic analysis of public speeches
on persuasive strategies in political rhetoric..... 78

TO‘YCHIYEVA ZULAYXO HAMROQO‘LOVNA
O‘zbek antroponimikasida ism tanlash masalalari..... 81

ADABIYOTSHUNOSLIK

УМУРЗОҚОВ БАҲРИДДИН САФАРОВИЧ
Алий Сафий Ҳиравий қаламига мансуб янги топилмалар 84

XALILOVA SHOHISTA MUHAMMADI QIZI
Rey Bredberining asarlari va o‘zbek adabiyotida
anti-utopik mavzularning qiyosiy tahlili 89

ABDIVALIYEV OBITJON ODILJONOVICH
Abdulla Qahhorning «Boshsiz odam»
hikoyasida huquqsiz ayol timsoli 92

QARAQULOV AZIZBEK
Inson va tabiat muammosining o‘rganilishi..... 94

TA’LIM

SHAMSIDDINOVA DILAFUZ FAXRIDDINOVA
The efficacy of contextual learning through extensive reading
and listening in enhancing esl speaking vocabulary 99

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2025; 3-4
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

«KO'NGIL» LEKSEMASI VA UNING «TAFAKKUR» SEMEMASIDAN SHAKLLANGAN FRAZEMALAR TAHLILI («Xamsa» asari misolida)

O'razova Iqbol Abdikarimovna,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti o'zbek tilshunosligi kafedrasi doktoranti (DSc), filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori


Turkiy tillardagi frazemalar tarkibida uchrovchi eng faol frazeologik yadro komponent *ko'ngil* birligidir. *Ko'ngil* leksemasi sof turkiy qatlamga mansub bo'lib, *dil, yurak, qalb* birliklari bilan sinonim holda uchrasa-da, aslida ifoda planining kengligi bilan ulardan farqlanadi. *Ko'ngil* leksemasi *kön=* fe'liga *-ül* qo'shimchasini qo'shish bilan yasalgan va «insonning his-tuyg'u olami» ma'nosini anglatib, qadimgi turkiy tilda «his-tuyg'uga beril» ma'nosini bildirgan[1]. E.R.Tenishev leksemani *kojn* – «пазуха» asosi bilan bog'lagan holda «ong, aql, tafakkur; hissiyot, kayfiyat» tarzida izohlaydi va uyg'ur tilidagi manbalarda faqat organ sifatida tushunilishini ta'kidlaydi[2]. Sevortyan bu leksemani göy-/güy-/-güv- (chidamoq, kutmoq, sabr qilmoq) o'zagi bilan bog'laydi va ko'ngil leksemasining bosh ma'nosi sifatida «his-tuyg'u makoni» semasini keltiradi. Ko'chma ma'noda esa *jon (ruh), ko'krak, ich, botin, vijdon, kayfiyat, xohish, istak; intilish-harakat, mayl; tuyg'u; sevgi, g'am, rozilik, ong, shuur, fikr; xotira, orzu, ishonch; quvonch, rohat, zavq; xarakter, fazilat; jasorat, mardlik; g'urur; go'zallik; erk, ozodlik* ma'nolarini bildirishi[3] qayd etilgan va ushbu semalar bilan bog'liq bo'lgan 13 ta frazemani izohlangan. L.Budagov esa ko'ngul leksemasiga oid *«yurak; iroda, jur'at, mardlik; fikr»* ma'nolarini ajratib ko'rsatgan va leksema asosida shakllangan 43 ta frazeologik birlikni keltiradi[4]. «Qadimgi turkiy lug'at»da esa leksema «1. yurak; 2. xohish, istak; 3. his-tuyg'u; 4. ong, fikr, tafakkur»[5] tarzida izohlanib, leksema asosida shakllangan 29 ta frazema keltirilgan[6].

Alisher Navoiy asarlari lug'atida *köŋül* leksemasining «1. qalb, dil, ko'ngil»; 2. xotir, yod, fikr, xayol, ixtiyor; 3. ko'nguldagi»[7] ma'nolari keltirilgan va 21 ta frazemaga izoh berilgan[8].

Navoiy «Xamsa»sida *köŋül* leksemasi bilan hosil qilingan 147 ta frazema qo'llangani aniqlandi. Ayrim frazemalar faqat bir dostonda qo'llangan bo'lsa, ayrim frazemalar faol bo'lib bir necha dostonda, ba'zan barcha dostonlarda qo'llanganiga guvoh bo'ldik.

Qiyos sifatida aytish mumkinki, XIV asrning ikkinchi yarmi manbalarida 48 ta «köŋül» yadroli frazemalar qo'llangan bo'lib, «Muhabbatnoma»da 8 ta, «Suhayl va Guldursun»da 4 ta, «Gulistoni bit-turkiy» asarida 37 ta «ko'ngul» yadroli frazema qo'llangan[9]. Navoiy davriga kelib *köŋül* leksemasi bilan hosil qilingan frazemalar miqdori va qo'llanish chastotasi keskin oshganini ko'rish mumkin. Buni asar hajmi, shuningdek, leksemaning ayni davrda faollashuvi bilan izohlash mumkin. Dostonlarda qo'llangan «köŋül» yadroli frazemalarning barchasi spontanlik asosida hosil bo'lgan va ular erkin birikma shaklida ishlatilmaydi, aksincha faqat frazema sifatida qabul qilinadi. «Köŋül» yadroli spontan xarakterdagi frazemalar qisman semantik qayta shakllangan bo'lib, bunda frazeologik ma'no semantik jihatdan frazema tarkibidagi yordamchi leksemaning ko'chma ma'nosi asosiga quriladi.

[1] Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. Туркий сўзлар. –Тошкент: Университет, 2000. –Б. 228.
[2] Тенишев Э.Р. Сравнительно-историческая грамматика тюрких языков. Лексика. – М.: Наука, 2001. – С. 274.
[3] Севортян Э.В. Этимологический словарь тюркских языков. – М., 1980. 3-томъ. – С. 76-77.
[4] Сравнительный словарь турецко-татарскихъ нарѣчій. Составилъ: Будаговъ Л. – Санктпетербургъ, 1871. Томъ II. – С. 166-167.
[5] Древнетюркский словар. –Ленинград: Наука, 1969. – С. 315.
[6] Древнетюркский словар. – Ленинград: Наука, 1969.– С. 315-316.
[7] Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. I–IV жилд. –Тошкент: Фан, 1983. 2-жилд. – Б. 151.
[8] Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. I–IV жилд. –Тошкент: Фан, 1983. 2-жилд. – Б. 151-153.
[9] O'razova I. XIV asrning II yarmiga oid turkiy manbalardagi frazemalar tadqiqi. – Toshkent: Bookmany, 2023. – B. 171-204.




Leksemaning mavhum tushunchani ifodalashi til egasiga birlikka nisbatan ijodiy yondashish imkonini beradi. Bu esa birlikni boshqa leksemalar bilan qo‘llash orqali ma’no chegarasini kengaytirishga qaratiladi. *Ko‘ngul* leksemasining frazeosemantik yadro sifatida tanlanishini quyidagicha tushuntirish mumkin:

- Abstraklik belgisining kuchliligi. M.Hakimova ta’kidlaganiday[1], ko‘ngul tushunchasi tasavvurda anglashilsa-da, ammo real holatda bunday a’zo mavjud emas. Bu esa ushbu birlikka xususiy yondashuv imkonini beradi. Bu xususiy yondashuv asosida til egasi leksemaga yangi ma’nolar yuklagan holda nutqiy frazemalar hosil qiladi, nutqiy frazemalarning til birligiga aylanishi leksemaning semantik boyishiga olib keladi;

- Leksemaning polisemantik xarakterga ega ekanligi. Polisemantik xarakterga ega birliklarning sememasi birdan oshiqligi bilan xarakterlanadi va bu holatga nisbatan semasiologiyada «leksemaning semantik strukturasi»[2] termini qo‘llanadi. Leksemaning semantik strukturasi boy ekanligi (ko‘ngul = yurak +ruhiyat+ hissiyot+ tafakkur), ya’ni leksemaning birdan ortiq sememalardan tashkil topgani turli mazmuniy maydonga tegishli bo‘lgan frazemalarning shakllanishiga turtki bo‘lgan. Bunda har xil semalarning asosiy planga chiqishi natijasida ma’nolar o‘zgarib turgan.

Yuqoridagi ilmiy manbalar tahlili va kuzatishlar asosida aytish mumkinki, *ko‘ngul* leksemasining 4 ta sememasi mavjud:



Qolgan barcha ma’nolar shu sememalarning komponenti, ya’ni semalaridir.

J.Kloson fikricha, *kөŋül* leksemasi dastlab «aql, his-tuyg‘ular» ma’nosini anglatuvchi mavhum ma’noga ega bo‘lgan, keyin u anatomik obyekt bilan bog‘langan[3]. Ammo rus turkologlari buning aksini tushunishadi[4]. *Kөŋül* leksemasidagi «tafakkur» sememasi, bizningcha, «hissiyot» sememasidan o‘sib chiqqan. Insonlardagi ichki sezish instinkti sabab leksema tafakkur bilan bog‘liq semalar qatoriga ega bo‘lgan. *Kөŋül* leksemasining «tafakkur» sememasi qadimgi turkiy tildagi faol ma’nolaridan biridir. Mahmud Koshg‘ariy, Yusuf xos Hojib, Rabg‘uziy asarlarida *kөŋül* leksemasi *өg* leksemasi bilan birga qo‘llanib, ziyraklikka, aqlga ishora qilgan. Masalan, *Törütürdä bersä bayat* ***өg kөŋül****, tügäl maya buldï biligkä oyul* –Agar (Xudo) yaratishda aql baxsh etsa, bola bilimga tugal moya (asos) topadi[5]. M.Koshg‘ariy ham ushbu leksemani «kөŋül – yurak» tarzida izohlab, shu leksema asosida hosil qilingan *kөŋüllük* birligini «aqlli, ziyrak» tarzida izohlagan va *kөŋüllük er* birikmasiga «aqlli, ziyrak odam» [6] deb ta’rif bergan.

Garchi hozirgi o‘zbek tilidagi lug‘atlarda *ko‘ngil* leksemasining «tafakkur» sememasi qayd qilinmagan («1. kishining his-tiyg‘u va kechinmalari manbayi; yurak, qalb, dil. 2. fe’l-atvor, xarakter, xulq»[7]),

[1] Qarang: Ҳакимова М. Ўзбек тилида абстракт номлар семантикаси. –Тошкент, 2019. – Б. 25-26.
[2] Bu haqida qarang: Xakimova M. Semasiologiya. Darslik. – Toshkent: Bookmany print, 2025. – B. 45.
[3] Qarang: Сравнительно-историческая грамматика тюркских языков. Лексика. –М., Наука, 2001. – С. 274
[4] Сравнительно-историческая грамматика тюркских языков. Лексика. –М., Наука, 2001. – С. 274.
[5] Юсуф хос Ҳожиб. Қутадғу билиг.– Тошкент, 1786. –Б. 70 b15.
[6] Кошғарий М. Девону луғатит турк. Индекс луғат. – Тошкент: Фан, 1967. –Б. 168.
[7] O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 6 jildli. I–VI jildlar. –Toshkent: Adabiyot va san’at, 2022. 2-jild. –B. 1030.

ya’ni leksema semantik torayishga uchragan bo‘lsa-da, «Xamsa»da qo‘llangan *köŋül* yadroli frazemalar tarkibida bu ma’no saqlanib qolgan.

Leksemaning «tafakkur» sememasi tarkibidagi asosiy semalar «aql, ong, shuur», «fikr, xayol», «xotira» semalari bo‘lib, bu semalarning faollashuvidan quyidagi frazemalar hosil bo‘lgan:

a) «*aql, ong, shuur*» semasining faollashuvidan *köŋligä sal= / köŋli arā sal=* frazemasi shakllangan bo‘lib, birlik «o‘y-xayolida paydo qilmoq, miyasiga joylamoq (O‘TFL, 293), sezmoq» ma’nolarini ifodalaydi: *Ul deb ne oqub varaqda mutlaq, Bu deb neki köŋligä salïb Haq (LM, 40).* Frazemaning yadro komponenti bo‘lgan *köŋül* leksemasidagi «*aql*» semasi *sal=* leksemasidagi «biror narsa ichiga yoki ustiga joylashmoq»[1] semasi bilan sintaktik munosabatga kirishishidan birlik shakllangan. Bunda «bilish hodisasining kutilmaganda ro‘y berish» semasi ham mavjud bo‘lib, bu ilohiy holat bilan bog‘lanadi. Shu sababli ba’zan *Haq, Alloh* kabi leksemalar ham matnda hamroh so‘z sifatida qo‘llanadi. Hozirgi o‘zbek tilida ayni ma’no *ko‘ngliga solmoq* frazemasi bilan ifodalanib, og‘zaki nutqda hamroh so‘z bilan birgalikdagi qo‘llanuvchi *xudo ko‘ngliga solmoq* shakli faoldir.

Aqlning bir muddat idrok qilish qobiliyatidan ayrilishi, kuchli hissiy holat sabab insonning shuurini yo‘qotib qo‘yish holati dostonlarda ko‘p uchraydigan sahna bo‘lib, Navoiy bu holatni rang-barang frazemalar bilan ifodalaydi. Shular orasida «ko‘ngil» yadroli frazemalar juda faoldir. Masalan, *köŋli az=* frazemasi «behush bo‘lmoq», «bir muddat voqelikni idrok qila olmay qolmoq» ma’nosini bildirib, leksemaning «*aql*» semasi negizida shakllangan. *Az=* leksemasidagi «adashmoq, yo‘qolmoq»[2] semasi «*aql*» semasi bilan valentlik hosil qilishidan yuzaga kelgan birikma (aqli yo‘qolmoq) metaforik ko‘chim orqali frazemalashgan: ǯān *safhasi* üzrä *nāma jāzïb, Här läfz jāzarda köŋli azïb (LM, 270).* Qadimgi turkiy tilda bu ma’no *ög köŋül ïčγïn=* frazemasi bilan ifodalanib, birlik *«терять сознание*, *лишаться чувств»* – «aqlini yo‘qotmoq»[3] ma’nosini anglatgan. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida bu ma’no *aqlini yo‘qotmoq* frazemasi bilan beriladi.

Shu birlikka sinonim bo‘lgan *huš köŋlidin vidā’ ejlä=* frazemasi «idrok qilolmay qolmoq, aqlini yo‘qotmoq» ma’nolarini bildirib, «ong», «shuur» semalaridan hosil bo‘lgan: *Ul* γarājibni *istimā’ ejläb, Huš anïŋ köŋlidin vidā’ ejläb (Ss, 372).* Ushbu birlik «hushning butkul yo‘qolishi», «tananing jonsiz holatda qolishi» kabi qo‘shimcha ma’nolarga ega.

Köŋlin mašγul qïl= frazemasi ham *köŋül* leksemasidagi «aql» semasining faollashuvidan va *mašγul qïl=* leksemasidagi «band qilmoq» sememasi bilan sintaktik birikuvidan hosil bo‘lgan. Birlik metafora orqali frazeologik ma’no kasb qilgan va «chalg‘itmoq, boshqa narsa bilan band qilmoq» ma’nolarini hosil qilgan: *Berib äfsānälär adāsïda tul, Šāh köŋlin qïlaj debān mašγul (Ss, 96).*

«Aql» semasi *köŋlidä huš* (hushyor, aqli o‘zida), *köŋligä **ǯöb** ol=* (ma’qul bo‘lmoq), *köŋlini **āvut=*** (o‘zini o‘zi aldamoq), *köŋülni māyil et=* (xohlamoq), *köŋl**ü** majl ejlä=* (istamoq), *köŋülgä kām ol=* (maqsad qilmoq), *köŋül qoj=* (niyat qilmoq, o‘ylamoq, qaror qilmoq) frazemalari shakllanishi uchun ham asos bo‘lgan.

b) köŋül leksemasining «tafakkur» sememasi tarkibidagi «*xayol, fikr*» semasidan bir turkum frazemalar hosil bo‘lgan. Bunda tafakkurning fikrlashdagi ishtiroki semani voqelantirgan. Jumladan, dostonlarda qo‘llangan *köŋli pïšur=* frazemasi «o‘ylab-o‘ylab bir qarorga kelmoq» ma’nosini bildiradi: *Ču köŋli pïšurdï bu ändešäni, Tilätti guruhï xïradpešäni (Sl, 450).* Frazema tarkibidagi *köŋül* leksemasidagi «xayol» semasi va *pïšur=* leksemasi tarkibidagi «ishlov bilan yoki rivojlanib yetilmoq» semasi birikishidan frazema yuzaga kelgan. Frazemani yuzaga keltirgan ko‘chim turi metafora. Hozirgi o‘zbek tilida ayni ma’no *ko‘nglida pishitmoq, aqlida pishitmoq, xayolida pishitmoq* frazemalari bilan ifodalanadi.

Ayni semadan hosil bo‘lgan *köŋlidä xajāl ejlä=* frazemasi *köŋli pïšur=* birligi bilan mazmunan yaqin bo‘lsa-da, farqli ma’no nozikligi mavjud. Birinchi frazemada *pïšur=* fe’li orqali jarayonning yakuni anglashiladi, ya’ni fikriy jarayon qaror bilan yakunlangan. *Köŋlidä xajāl ejlä=* frazemasi «o‘ylamoq, reja qilmoq» ma’nolarini anglatib, jarayonning davom etayotganini bildiradi: *Zulm eligä fikri zavāl ejlädi, Köŋlidä köp ‘adl xajāl ejlädi (HA, 340).*

«Xayol» semasi asosida hosil bo‘lgan *köŋligä kel=, köŋligä ötkär=, köŋlin qoj=, köŋligä kir=, köŋül šajdä bol=* frazemalari uchun integral sema «o‘ylamoq» denotativ semasi bo‘lib, birliklar farqlovchi semaga ham ega. Masalan, *köŋligä kel=* frazemasi tarkibida «o‘ylamoq» semasi bilan birga «to‘satdan, kutilmaganda» semasi ham mavjud: *Munča kämālāt ilä ḥukm ejlämüš, Kim neki köŋl**üŋ**gä kelür jaχšï iš (HA, 344). Köŋligä ötkär=* frazemasi esa o‘ylamoq jarayonining juda qisqa va beixtiyor yuz berishini anglatadi: Čun *taammul qïlïb bu* ǯāh-*u* ǯālāl*, Köŋl**üŋ**gä här däm ötkärib bu* χajāl*: (Ss, 82). Köŋlin qoj=* frazemasi «fikr-u xayoli bu yerda bo‘lmoq, doim o‘ylamoq» ma’nosini anglatib, birlik semantik tarkibida

[1] O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 6 jildli. I–VI jildlar. –Toshkent: Adabiyot va san’at, 2022. 4-jild. –B. 702.
[2] O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 6 jildli. I–VI jildlar. –Toshkent: Adabiyot va san’at, 2022. 2-jild. –B. 508.
[3] Древнетюркский словарь. – Ленинград: Наука, 1969. – С. 378.

«davomiylik» va «masofa» semasi mavjud: *Mähväš ul ikav degändek etti, Köŋlin qojub anda evgä ketti (LM, 87). Köŋligä kir=* frazemasi **«**xayoliga kelmoq, fikridan o‘tmoq» ma’nosini bildirib, birlik sememasida «kutulmaganlik», «tasodifiylik» semalari ham mavjud: Ävväldä *köp ejlädim taammul, Tā köŋlimä kirdi bu taχajjul (LM, 31).*

c) *köŋül* leksemasining «tafakkur» sememasi tarkibidagi «xotira» semasi «xayol» semasiga juda yaqindir. Bu birlik bilan shakllangan frazemalarni ajratish ham biroz murakkab. Ammo eslash va unutish jarayoni xotira bilan bog‘liq ekanini inobatga olib alohida tahlil qilishni ma’qul ko‘rdik. *Köŋülgä tüš=, köŋligä jet=, köŋligä jaz=, köŋlidä qal=* frazemalari uchun integral sema «eslamoq» semasidir (denotativ sema), ammo birliklar tarkibida farqlovchi yordamchi semalar ularni bir-biridan ajratib turadi. Masalan, *köŋülgä tüš* = frazemasi «xotira» semasidan shakllangan bo‘lib, «dilda, ko‘ngilda paydo bo‘lmoq»[1], «eslamoq» ma’nosini bildiradi: *Ketür sāqïj, ul jāmi taqvišikan Ki, köŋlümgä tüšmiš havāji vätän (SI, 528). Köŋlidä qal=* frazemasi esa «eslab qolmoq, unutmaslik» ma’nolarini bildirib, frazemaning «ta’sir qilmoq» semasi ham mavjud: *… vä aqd izdivāǯiya tartïldïkïm, bu nasājih köŋlidä qal*γaj *vä bu* ǯavāhirni *qulaγïγa alγaj (HA, 342).*

Köŋlidin joq ejlä=, köŋligä beχāst qïl=, köŋlidin barbād ol=, köŋüldin ***čïq=****, köŋlin* ***χāli*** *qïl=* frazemalari uchun integral sema «unutmoq» semasi bo‘lib, birliklar yordamchi semalar bilan farqlanib turadi. Masalan, *köŋlidin joq ejlä=* frazemasi jarayonning boshqa bir kishi vositasida amalga oshishini bildiradi va matnda «unuttirmoq» ma’nosini ifodalaydi: *Jemäk kāmïnï köŋlidin joq ejläb, Mäläkdek zikr ilä köŋlin toq ejläb (FSh, 16). Köŋligä beχāst qïl=* frazemasi esa «unutmoq» ma’nosini ifodalasa-da, jarayonni obraz o‘z xohishi bilan ongli ravishda amalga oshirishiga ishora qiladi: *Nijat anïŋ birlä burun rāst qïl,* Yajrïn *anïŋ köŋl****üŋ****gä beχāst qïl (HA, 171).* «Layli va Majnun»da «unutmoq, yodidan chiqmoq» semasini ifodalagan *köŋlidin barbād ol=* frazemasi esa jarayonning obraz bilmagan holatda, kutilmaganda ro‘y berganini bildiradi: *Köŋl*ümdin *olub häm erdi barbād, Nämäŋ oquγandïn ejlädim jad (LM, 215).*

Frazemalardagi bu ma’no nozikligi birliklarni nafaqat semantik jihatdan farqlaydi, balki mantdagi uslubiy vazifasini ham belgilab beradi. «Xamsa» dagi frazemalarning bunday nozik farqlanishi ijodkor mahoratini aks ettirishi shubhasiz.

Yuqoridagi tahlillar asosida quyidagilarni xulosa qilish mumkin:

- *köŋül* leksemasi eng qadimgi turkiy qatlamga daxldor sof turkiy leksemadir va «his-tuyg‘u manbai, yurak» ma’nosi bilan hozirgi turkiy tillarning barchasida faol qo‘llanadi;

- tadqiq uchun yig‘ilgan misollar asosida aytish mumkinki, XV asr frazemalari tarkibidagi *köŋül* leksemasining semantik strukturasi quyidagicha bo‘lgan: *köŋül = yurak+ruhiyat+ hissiyot+tafakkur.* Leksemaning bu semantik strukturasi frazemalarni komponentlarga ajratib, komponentlar orasidagi semantik munosabatlarni kuzatish asosida shakllantirildi.

- leksema Navoiy «Xamsa»sidagi eng faol frazeosemantik yadro komponent bo‘lib, leksema yordamida 147 ta frazema shakllangan. Bu frazemalarning shakllanishida leksemaning semantik strukturasi asos bo‘lgan. Shundan 27 ta frazema leksemaning «tafakkur» sememasidan hosil bo‘lgan.

- Frazemalar uchun asosiy ko‘chim turi metafora va metonimiyadir. Bu frazemalarning aksariyati aynan yoki turli o‘zgarishlar bilan bugungi tilimizda faol qo‘llanadi. Ammo arxaiklashgan variantlar ham mavjud.

Rezyume. Ushbu maqolada frazeosemantik yadro sanalgan *köŋül* leksemasining semantik taraqqiyoti kuzatilib, birlikning XV asrdagi semantik tuzilishi aniqlandi, frazeosemantik yadroning «tafakkur» sememasidan hosil bo‘lgan frazemalar mazmuni va shakllanishiga ko‘ra tahlil qilindi.

Resume. In this article, the semantic progress of the counted *köŋül* lexeme of the phraseosemantic nucleus was observed, the semantic structure of the unit in the 15th century was determined, and the phrasemes arising from the «contemplative» Seman of the phraseosemantic nucleus were analyzed according to their content and formation.

Резюме. В данной статье прослеживается семантический прогресс лексемы *köŋül (души)*, считающейся фразеосемантическим ядром, определена семантическая структура единицы XV века, проанализированы по содержательной стороне и по формированию фраземы, возникшие из семемы «мышление» фразеосемантического ядра.

[1] Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 4 жилдли. I–IV. –Тошкент: Фан, 1983. 2-жилд. –B. 279